

AHOLINI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Homidov Asrorbek Toxirjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:29.08.2025

Revised: 30.08.2025

Accepted:31.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

tadbirkorlik,
jamg'arma, kichik
biznes, bandlik,
kambag'allik, aholi
turmush darajasi,
farovonlik.

Mazkur ishda zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Kichik biznes subyektlari nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, balki innovatsion g'oyalarni ilgari surish, bandlikni ta'minlash, iste'mol bozorini to'ldirish kabi funksiyalarni ham bajaradi. Jahon tajribasi asosida kichik biznes rivojlanishining bosqichlari tahlil etilib, bu jarayonda ilmiy-texnik taraqqiyotning ta'siri yoritilgan. Shuningdek, "biznes" va "tadbirkorlik" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi va farqlari ko'rib chiqilgan. O'zbekiston olimlarining fikr-mulohazalari asosida mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mavjud muammolar, ularni hal qilish yo'llari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati asoslab berilgan. Yirik va kichik biznes o'rtasidagi hamkorlik, axborot va maslahat markazlarini tashkil etish, tashqi iqtisodiy faoliyatda kichik biznesning ishtirokini kengaytirish muhimligi ta'kidlangan.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti rivojlanishida kichik biznes va tadbirkorlik eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga milliy iqtisodiyotda bozor mexanizmining normal ishlashi sharoitida kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiy

siyosatning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o‘shish sur‘atlari, yalpi milliy mahsulot sifati, hamda uning tuzilishi kichik biznes subektlari tomonidan belgilanadi. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes yalpi ichki mahsulotning 60-70 foizini tashkil etadi, shu sababli ham ularning faoliyati turli dasturlar yordamida qo‘llab-quvvatlanadi. Aynan kichik biznes subektlari ko‘pchilik mamlakatlar sanoatida innovatsion jarayonlarning tashabbuskori bo‘lib, iste‘mol tarkibidagi o‘zgarishlarga tezkorlik bilan javob berishga qodir. Kichik tadbirkorlik subektlari tovar va xizmatlar eksportida salmoqli o‘rin egallagan.

Shuni ta‘kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotida kichik biznes rivojlanishi ancha uzoq davom etgan jarayon bo‘lib, ularning rivojlanishini N.D.Kondratevning iqtisodiy konyunktura sikllari nazariyasiga muvofiq bir necha bosqichga ajratish mumkin (Myasoyedov B. A. Problemi ekonomicheskix siklov i dlinnix voln v trudax i sudbax rossiyskix ekonomistov // Kondratevskiye volni. – 2014. – № 3. – S. 343–357.):

Birinchi bosqich (1873-1929) monopoliyalar va kichik biznes o‘rtasidagi raqobat bilan tavsiflanadi, natijada kichik korxonalar bozordan siqib chiqarildi. Lekin, kichik biznes yirik biznes bilan raqobatlashishga moslashib, bozorda muhim o‘rin egallashga harakat qildi. Bunda subpudrat tizimi vositasida yirik biznes bilan o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Ikkinchi bosqich (1929 - 1974 yillar) ilmiy -texnik inqilob davrini qamrab oladi., bu davr texnika va texnologiyaning tubdan o‘zgarishiga, tovarlar assortimentining kengayishiga, kompyuterlashtirish jarayonining boshlanishiga, ilmiy -texnik xizmat turlarining butunlay yangi shakllari rivojlanishiga, venchur kapitalining shakllanishi, lizingning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bularning barchasi kichik biznesning jadal rivojlanishiga yordam berdi.

Ilmiy-texnika inqilobining keyingi bosqichi jarayonida (70-80-yillarda) kichik biznesning roli yanada oshdi, chunki u sanoatning biotexnologiya, muqobil energiya manbalarini ishlab chiqish kabi tarmoqlarining asosiy ishtirokchisiga aylandi.

Uchinchi bosqich (1974 yil – hozirgi davr) kichik biznesning faoliyat doirasining kengayishi va ularning huquqiy va iqtisodiy mustaqilligining o‘shishi bilan bog‘liq. Shunday qilib, kichik biznes subektlari shakllanish va rivojlanishning ancha uzoq tarixiga ega, biroq haligacha tadbirkorlikning bu shakllariga yagona ta‘rif berilmagan.

“Biznes” so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, tadbirkorlik faoliyati yoki kishilarning foyda olishga qaratilgan faoliyatidir. Bozor iqtisodiyoti subektlarining xo‘jalik faoliyatida “tadbirkorlik” va “biznes” tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lib, amaliyotda ular bir-birini almashtirishlari mumkin. Ko‘pchilik iqtisodiy lug‘atlarda “biznesmen” so‘zi go‘yoki tadbirkor, ishchan deb yuritilsa, “biznes” bu - faoliyat, foyda keltiruvchi mashg‘ulot deb tushuniladi. “Tadbirkor”

va “biznesmen” kabi tushunchalarida ishlab chiqarish, dallolchilik, savdo, moliyaviy va innovatsiya faoliyatlari bilan shug‘ullanuvchi va daromad olish niyatidagi inson tushuniladi.

Respublika va xorijiy davlatlarning iqtisodchi olimlari bozor iqtisodiyoti jarayonini o‘rganishda, tadbirkorlik va biznes tushunchasini iqtisodiy faoliyatning bir turi deb hisoblaydi. Bu tushunchalar xususiy shaxs, korxonalar va tashkilotlar tomonidan, daromad olish maqsadida o‘zining xamda shartnoma bilan hamkorlikda ishlaydigan sheriklarining manfaatlarini ko‘zlab, ishlab chiqarish, sotish, servis, xizmat ko‘rsatish, tovar ayirboshlash kabi erkin xo‘jalik yurituvchi faoliyatni bildiradi. “Tadbirkor” va “biznesmen” tushunchalari iqtisodiy faoliyat soxalarida ko‘rilayotganda ma‘nodosh deb xisoblanmaydi. G‘arb davlatlarining bozor iqtisodiyoti xaqidagi adabiyotlarida, biznes – jamiyatning talab va xoxishlarini qondirishga qaratilgan ishlab chiqarish tizimi, tushuniladi. Biznes bozor iqtisodiyotining barcha ishtirokchilari orasidagi munosabatlarini qamrab oladi. Biznes – bu kishining bozor munosabatlari tizimidagi ishchanlik faolligidir (U.P.Umurzakov, A.J.Toshboyev. Kichik biznes va tadbirkorlik / O‘quv qo‘llanma. - T.: “Sano standart”, 2014. – 480 b.).

Kichik biznes – tadbirkorlik faoliyatiga asoslangan, kichik shaklda amalga oshiriladigan, bevosita birorta monopol korxonalar tarkibiga kirmaydigan xo‘jalik yurituvchi subektdir. U ishlab chiqarishning, bir tomondan, eng kam miqdorda moddiy, tabiiy resurslarni jalb etgan hamda inson kapitalidan iloji boricha eng to‘liq foydalangan holda moddiy ne‘matlar yaratadigan o‘ziga xos sektori bo‘lsa, ikkinchi tomondan, axolining o‘z bilimi, malakasi, tashkilotchilik qobiliyati, iste‘dodini namoyon qiladigan, o‘zini o‘zi mablag‘, turli moddiy ne‘matlar bilan ta‘minlaydigan sohadir.

Kichik biznes mahsulotlarining yangi turlarini va bozorning yangi “tokcha”larini tezkorlik bilan egallaydi, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish iste‘molchiga yaqinlashtiradi, yirik biznes uchun manfaatli hisoblanmagan tarmoqlarda jadal rivojlanadi. Mahalliy xomashyodan oqilona, aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish, investitsiyalarni jadal o‘zlashtirish xo‘jalik yurituvchi ushbu subektlar uchun xosdir.


Jahon amaliyotida kichik biznes subektlari turli tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo‘lgan tadbirkorlik hisoblanadi. Bunda “biznes” va “tadbirkorlik” tushunchalari ko‘p xollarda bir ma‘noda qo‘llaniladi. Ammo ular orasida muayyan farqlar mavjud.

Kichik biznes nazariyasini rivojlantirishga hayotining muayyan davrida to‘qimachilik fabrikasiga ega bo‘lib, ishbiarmonlik bilan shug‘ullangan fransuz iqtisodchisi Jan-Batist Sey muhim hissa qo‘shgan. U “Siyosiy iqtisod trakti” (1803 y.) va “Siyosiy iqtisodning to‘la kursi” (1828 y.) asarlarida ishlab chiqarish va taqsimot nazariyasini rivojlantirib, bunda

asosiy rolni tadbirkorlikka bergan. Olim tadbirkorning asosiy vazifasi ishlab chiqarish omillari: yer, kapital va inson omilini muvofiqlashtirish, deb hisoblagan. “Tadbirkor, - deb ko‘rsatgan edi u, o‘z xisobidan tavakkal qilib, o‘z foydasiga qandaydir mahsulot ishlab chiqarishga kirishgan shaxsdir” (G.Q.Abduraxmonova. Kichik biznesda axolini ish bilan ta’minlash. Monografiya –T.:Iqtisodiyot, 2014.-216 b.).

S.D. Polzikovning fikricha, “kichik tadbirkorlik – bu inson faoliyatining asosiy ko‘rinishi bo‘lib, butun tizimdan tarkib topgan sotsiomadaniy faktor xisoblanadi, jamoa maqsadiga yetishishiga yo‘naltirilgan, yangi shakl va xo‘jalikning imkoniyatlaridir» (http://otherreferats.allbest.ru/law/00202737_0.htm Puti razvitiya sovremennogo predprinimatelstva. - M., 2008. - s. 82.).

YE.L.Yemelyanova esa, o‘z qarashlarida bir qancha yo‘nalishlarni ko‘rsatib berdi, ular quyidagicha: kichik biznes korxonalarini qo‘llab-quvvatlash asosida yirik xalqaro ko‘rgazmalar va ishbilarmonlik missiyasini tashkillashtirish, yirik va kichik biznes faoliyati o‘rtasida xamkorlik o‘rnatish, maslahat va axborot markazlarini tashkil qilish va h.k. (http://businesspress.ru/newspaper/article_mId_3_aId_382766.html).



1-rasm “Biznes” va “tadbirkorlik” tushunchalarining mohiyati

Manba: G.Q. Abduraxmonova. Kichik biznesda axolini ish bilan ta'minlash.

Monografiya asosida muallif tomonidan tayyorlandi. - T.: TDIU, Iqtisodiyot, 2014.- 83-b.

O'zbekiston olimlaridan i.f.n. R.Sodiqovanning “Kichik tadbirkorlikni – bozor xo'jaligining muhim tarkibiy qismi va ommaviy subekt bazasi hisoblanib, u o'ziga xos bo'lgan raqobat mexanizmining ajralmas qismi hamdir. Iqtisodiy rivojlanishning mazkur bosqichida O'zbekiston asosiy e'tiborni iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning yuqori texnologiyasi va zamonaviy uskunalari asosida yuqori texnologik eksportbop iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratishi zarur” (Sodiqova R.A. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznesda raqobat muhitini shakllantirish. - T., 2008).

A.SH. Xolmurodovning “O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning bugungi holatining tahlili ushbu sohaning muntazam rivojlanishida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatni umuman muvaffaqiyatli borishini ko'rsatdi. Biroq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi hududlar kesimida nihoyatda notekis. Harakatsiz korxonalar soni ko'p. Shu sababli respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida erishilgan yutuqlarga qaramasdan, ayrim hudud va sohalarda iqtisodiyotning nodavlat sektorini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tubdan kuchaytirish zarur” (Xolmurodov A.SH. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining nodavlat sektorini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni kuchaytirish T.: 2009 y.).

M.R. Boltaboyev, M.S.Qosimovalarning “Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat sahasida ishtirok etishi, ularning eksport salohiyatini oshirish, mintaqa va jahon bozorlariga chiqishini kengaytirish muammosini hal etishga jiddiy ahamiyat qaratishimiz lozim.” va boshqa olimlar ushbu mavzu yuzasidan o'zlarining muayyan hissalarini qo'shganlar (Boltaboyev M.R., Qosimova M.S. Kichik biznes va tadbirkorlik. - T., 2012.).

Eksport va import operatsiyalari tarkibiy tuzilishini tartibga solishning moliyaviy usullarini takomillashtirish masalalari iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ushbu masalaga respublikamiz iqtisodchi olimlaridan M. Boltaboyev, A. Qo‘chqorov, A. Zikriyoyevlarning asarida “...O‘zbekistonning eksport salohiyati so‘nggi o‘n besh yil ichida o‘zining eng yuqori darajasiga chiqdi. Tovarlarini yetkazib berish va eksport nomenklaturasini oshirib borish jarayoni davom etmoqda” (Topildiyev S. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida eksport salohiyatini oshirishning moliyaviy muammolari <http://www.tdiu.uz/Files/Download/Nashrlar/ITIJurnali/2-Soni/IV.Moliya20va20bank.pdf>) shu bilan bir qatorda xorij olimlaridan R. Andersonning fikricha, “kichik biznes yakka va jamoa xajmidagi harakatchanlik san’ati bo‘lib, insonlarni ichki talabini qondiruvchi vosita hisoblanadi” (R. Anderson. Journal of Small Business and Enterprise Development, 2008 15 (2) 259-273.).

Amerikalik iqtisodchi P. Druker tadbirkorlikka ta’rif berishda birinchi o‘ringa yangilik kiritishni qo‘ygan. Uning fikricha, “Yangilik kiritish tadbirkorlarning aloxida vositasi bo‘lib, bu vosita yordamida ular o‘zlarining biznes va xizmatlar sohasidagi rejalarini qulay imkoniyat sifatida amalga oshiradi. Tadbirkorlarning vazifasiga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratadigan yangiliklar kiritish manbalarini sobitqadamlik bilan izlash kiradi”. U tadbirkorlar deganda, o‘zining kichik biznesini ochgan hamda “qandaydir yangi, mavjudlardan farq qiladigan narsani yaratadigan, qiymatni o‘zgartiradigan va qayta tashkil qiladigan” shaxslarni tushungan (G.Q. Abduraxmonova Kichik biznesda axolini ish bilan ta’minlash. Monografiya – T.: Iqtisodiyot, 2014. - 216 b.).

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini hisobga olgan holda, kichik biznes jamiyat hayotida xarakterlantiruvchi kuch, yuqori foyda olish, iste’molchilarga yuqori sifatli, yangi tovarlarni yetkazib berish, ishlab chiqarishga yangilik kiritish va h.k. kabi vazifalarni bajaradi, deb xulosa chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomisheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of sorporate finanse. MsGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and esonomis modeling of the system of

interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.

5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.

6. Kumri Nomozova. Evolyusiyaya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.

7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.

8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.

9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.

10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.

11. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.

12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.

13. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliy. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.

14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.

15. Publis Finanse: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning

16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.